

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

2-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (6) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Kurbanov Eldar Ermamatovich, Qormishov Mirjalol Jumamurod o'g'li</i> O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIKNI TA'MINLASHDA MILLIY MADANIY MARKAZLARINING INSTITUTSIONAL ROLI VA VAZIFASI (Sirdaryo viloyati markazlari misolida)	11-15
<i>Djurayev Ikrom Nematovich</i> SOPOLLI-KO'ZALI ARXEOLGIK QATLAMLARIDA SHIMOLIY DASHT QABILALARINING IZLARI	16-19
<i>Акбарова Камила Шухрат кизи</i> МЕЖДУ СЕКУЛЯРИЗАЦИЙ И МОДЕРНИЗАЦИЕЙ: СОВЕТСКАЯ ПОЛИТИКА В СФЕРЕ РЕЛИГИИ В УЗБЕКИСТАНЕ	20-26
<i>Olimov Islombek Ulug'bek o'g'li</i> SUV TA'MINOTI TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....	27-31
<i>Sitorabonu Bobojonova</i> BUXORODA DASTLABKI MUZEYNING TASHKIL TOPISHI.....	32-36
<i>O'ralov Orzubek</i> GEOGRAFIK KASHFIYOTLARGA QADAR POLINEZIYA XALQLARINING RIVOJLANISHI VA DAVLATCHILIK INSTITUTLARINING SHAKLLANISHI TARIXI.....	37-45
<i>Qahhorov Shohjaxon Shodiyor o'g'li</i> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING TARIXIY VA MA'NAVIY TAHLILI.....	46-50

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Madartov Bahrom</i> TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA O'ZARO MUNOSABATLARNI HISOBGA OLISH ASOSIDA STRATEGIK REJALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH	51-55
<i>Xudayberdiyev Otabek Absalomovich</i> XALQARO SAVDO MUNOSABATLARIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TA'MINOT ZANJIRI VA LOGISTIKA KONTROLLINGINING ROLI	56-64
<i>Ismailova Shaxnoza Uktamovna</i> O'ZBEKISTONDA INFLYATSION BOSIM OMILLARI VA ULARNING ISTE'MOL NARXLARI INDEKSIDA NAMOYON BO'LISHI.....	65-75
<i>Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li</i> XIZMAT KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI BELGILOVCHI OMILLAR TIZIMINI ANIQLASH VA XIZMAT SIFATI QIYMAT TAKLIFI MIJOZ TAJRIBASI BREND KAPITALI HAMDA TEZKORLIK INDIKATORLARI ASOSIDA BAHOLASH	76-87

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Alimatova Nargis Abduxalilovna</i> INSON ONGINING TABIATINI O'RGANISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	88-93
--	-------

<i>Utegenova Jamila Djolmurzayevna</i> O'ZBEKISTONDA BIOETIKANING SHAKLLANISHI VA FALSAFIY ASOSLARI	94-97
<i>Mamatqulov Rashid Pazilbekovich</i> JAMIYAT YUKSALISHIDA IJTIMOY NAZORATNING ROLI.....	98-102
<i>Shadimetov Mahmudjon Negmatjanovich</i> RUHIY KAMOLOT TUSHUNCHASINING FALSAFIY MAZMUNI VA TARIXIY ILDIZLARI .	103-108
<i>Ochilov Jamshid Abdurashidovich</i> KOSMOGEN, TEXNOGEN, ANTROPOGEN SIVILIZATSIYALAR MOHIYATINING ONTOLOGIK TALQINI	109-117
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> KASABA UYUSHMALARI TIZIMIDA INSON QADRINI YUKSALTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	118-126
<i>Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna</i> ABU RAYHON BERUNIY ASARLARIDA FANLARNING INSON HAYOTIDAGI O'RNI MASALALARI	127-130
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Axmedov Oybek Saporbayevich</i> INGLIZ TILIDAGI SOLIQ-BOJXONA TERMINOLOGIK BIRLIKLARINI O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHNING STILISTIK MUAMMOLARI.....	131-139
<i>Babadjanova Nazokat</i> OGAHYNING SO'Z VA NUTQ MASALALARIGA OID QARASHLARINING MA'RIFIY MANBALARI	140-148
<i>Xo'jamqulov Anvar Jozilovich, Tog'ayeva Shoxnoza Elmurod qizi</i> ADABIYOTIDA "ABSURD" TUSHUNCHASI	149-153
<i>Abdullayeva Rahima Raimqul qizi</i> MEDIA YORDAMIDA IMIDJNING SHAKLLANISHI VA IJTIMOY FIKR	154-161
<i>Fozilov Arabjon Nozimjon o'g'li</i> CHET TILLARINI O'RGANISHDA SO'Z YODLASHNING AHAMIYATI	162-165
<i>Sarvinov Abdiraxmonova Davron qizi, Eshtuhtarova Bibigul Bektoshevna</i> THE SIGNIFICANCE OF STUDYING GENDER REPRESENTATION IN IDIOMS AND PHRASEOLOGICAL UNITS.....	166-171
<i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i> TAVALLO IJODIDA POETIK OBRAZ YANGILANISHINING IJTIMOY-TARIXIY VA ADABIY- ESTETIK OMILLARI.....	172-185
<i>Кодирова Зарина Баходировна</i> ХУДОЖЕСТВЕННОЕ СВОЕОБРАЗИЕ ДЕТСКОЙ ПРОЗЫ ДЭВИДА УОЛЛЬЯМСА: «DEMON DENTIST», «THE FING», «GANGSTA GRANNY».....	186-191
<i>Ismatilloev Jobir</i> "FIRDAVS UL-IQBOL"DAGI QASIDALARDA HUKMDORLAR MADHI	192-197
<i>Bozorova Nasiba</i> O'LMAS UMARBEOVNING "YOZ YOMG'IRI" QISSASIDA JINOYATNI O'RGANISHDA RETROSPEKSIYA USULI	198-203

<i>Ганиева Зухра Муратбаевна</i> ВЕРБАЛИЗАЦИЯ КОНЦЕПТА «СМЕРТЬ» В РУССКОМ ЯЗЫКЕ: КОГНИТИВНО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ	204-212
--	---------

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich, Ro'ziboyev Asilbek</i> SUN'IY INTELLEKT QARORLARIDA ADOLATSIZLIK MUAMMOSI VA UNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	213-218
<i>Bazarova Dildora Baxodirovna</i> ODIL SUDLOVNI TA'MINLASHDA "RAQAMLI SUD"	219-226
<i>Бабаев Джасхонгир Исмаилбекович</i> КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ДОГОВОРА ПИТЬЕВОГО ВОДОСНАБЖЕНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: ПУТИ МОДЕРНИЗАЦИИ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА	227-229
<i>Азходжаева Роза Алтыновна</i> РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ СИСТЕМЫ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ.....	230-235
<i>Абдужампоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> ЭЛЕКТРОННЫЕ ДОКАЗАТЕЛЬСТВА В ДЕЛАХ О КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЯХ: ПРОБЛЕМЫ СБОРА, ФИКСАЦИИ И ПРАВОВОЙ ОЦЕНКИ	236-246
<i>Alijanov Ilhomjon Erkinjon o'g'li</i> PROKURATURA ORGANLARIGA QABUL QILISHDA NOMZODLARGA QO'YILGAN TALABLAR, XIZMATGA QABUL QILISH VA YOSH MUTAXASSISLAR BILAN ISHLASHGA DOIR FAOLIYATNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	247-253
<i>Sarsenbaeva Aynura Tenelbay qizi, Tanirbergenov Sultanbek Bazarbaevich</i> FUQAROLARNING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ VA ERKINLIKLARIGA QARSHI JINOYATLAR HUQUQIY MOHIYATI.....	254-258
<i>Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o'g'li</i> INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING TARKIBIY QISMI	259-265
<i>Usmonaliyev Muslimbek Qurvonaliyevich</i> SPORTCHILARNI VAQTINCHALIK IJARAGA Olish SHARTNOMASINING SPORT HUQUQIDAGI O'RNI	266-272
<i>Mamadaliyev Boburjon Bahodirjon o'g'li</i> MAHALLIY BUDJETNI TARTIBGA SOLISHDA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI IJRO ORGANLARINING VAZIFALARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	273-278
<i>Umarova Xolisxon Nomoz qizi</i> KORPORATSIYA DIREKTORLARINING FUNKSIONAL VAZIFALARINI AMALGA OSHIRISH BILAN BOG'LIQ JAVOBGARLIGI CHEGARASI	279-286
<i>Yaqubova Guli Qosimboy qizi</i> VOYAGA YETMAGANLAR BILAN BOG'LIQ ISHLARNI FUQAROLIK SUDLARIDA KO'RISHDA PROKURORNING ISHTIROKI TUSHUNCHASI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI	287-294
<i>Ibrohimov Azimjon</i> XO'JALIK JAMIYATLARI BOSHQARUV ORGANLARI TIZIMIDA IJRO ORGANI: ROSSIYA FEDERATSIYASI MISOLIDA	295-301

<i>Choriyeva Xupshidabonu Xuppam qizi</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING "VASIYLIK VA HOMIYLIK TO'G'RISIDA"GI QONUNINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI.....	302-310
<i>Saidazimov Yusuf Sodiq o'g'li</i> MA'MURIY AKT. MA'MURIY AKTNING MAZMUN-MOHİYATI. GERMANIYA TAJRIBASI.....	311-316
<i>Tursunov Ilxomjon Salimovich</i> MUQADDAM SUDLANGAN SHAXSLAR TOMONIDAN SODIR ETILISHI MUMKIN BULGAN JINOIY HARAKATLARNI OLDINI OLISH VA MAXSUS PROFILAKTIKANI TAKOMILLASHTIRISH	317-321
<i>Xojanazarov Otabek Saydazimovich</i> OZODLIK DAN MAHRUM QILISH BILAN BOG'LIQ BO'LMAGAN JAZOLAR IJROSI USTIDAN PROKUROR NAZORATI: MILLIY VA XALQARO TAJRIBA.....	322-329
<i>Raxmedov Xurshid Ashrapxodjayevich</i> JINOYAT ISHINI QO'ZG'ATISH INSTITUTINING HUQUQIY TABIATI VA PROTSESSUAL AHAMIYATI	330-339
<i>Mansurova Xulkar Nabiyevna</i> FUQAROLIK PROTSESSINING TEZKORLIGINI TA'MINLASHDA SIRTDAN HAL QILUV QARORI CHIQRISHNING AHAMIYATI	340-349
<i>Begimova Nasiba Xudayberdievna</i> FARZANDLIKKA OLISH INSTITUTINING TADRIJIY RIVOJLANISHI	350-358
<i>Yo'ldoshbekov Anvar</i> NAQDSIZ HISOB-KITOB LAR VA RAQAMLI NAZORAT TIZIMLARINING HUQUQIY AHAMIYATI	359-367
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> EVRISTIK TA'LIM NAZARIYASIDA TA'LIM OLUVCHINING MUSTAQIL FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	368-372
<i>Shukurov Mirjalol Norpulatovich</i> YAKKAKURASHCHILARNI TEXNIK USULLARIGA O'RGATISHDA KLAS TER USLUBIDAN FOYDALAN HOLDA TAKOMILLASHTIRISH	373-377
<i>Tilyabayev Kamil Zaitjonovich</i> O'ZBEK TILINING O'RGANILISHI VA DEKOLONIZATSIYASIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR: (DE)KOLONIAL HIS-TUYG'ULAR, MILLAT VA O'Z-O'ZINI ANGLASH	378-383
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li</i> SHARQ MUTAFAKKIRLARNING FALSAFIY QARASHLARI ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA VALEOLOGIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM PEDAGOGIK OMILI SIFATIDA.....	384-388
<i>Xo'jamqulov Rasulbek Qurbon o'g'li</i> KOMPYUTER GRAFIKASI TEXNOLOGIYALARINI LOYIHA ASOSIDA O'QITISHGA INTEGRATSIYALASHNING PEDAGOGIK SAMARADORLIGI	389-393
<i>Badalov Ulug'bek Xikmatovich</i> GEOGRAFIYA FANI DARSLARIDA ONLAYN GIS TIZIMLARIDAN FOYDALANISH.....	394-398

<i>Anvarjonova Nodirakhon Nasimbek qizi</i> IS EXPLICIT GRAMMAR INSTRUCTION STILL PEDAGOGICALLY JUSTIFIED? A CRITICAL RECONSIDERATION OF ITS ROLE IN CONTEMPORARY ENGLISH LANGUAGE EDUCATION.....	399-406
<i>Imomov Fozil Shakarbek o'g'li</i> TEMPERAMENT NAZARIYASI VA INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR ASOSIDA GRAFIK FAOLIYATNI TASHKIL ETISH: PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA SAN'AT TERAPIYASI KONTEKSTIDA.....	407-412
<i>Курбанбаев Джавод Аминбаевич</i> КОГНИТИВНЫЕ И ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ОСНОВЫ ЛЕКСИЧЕСКИХ ГЛОССАРИЕВ В ЯЗЫКОВОМ ОБРАЗОВАНИИ	413-417
<i>Eshnazarova Farida Jo'raqulovna</i> JAMOADA LIDERLIK VA UNING SIFATLARI (SPORT JAMOALARI MISOLIDA).....	418-421
<i>Yuldasheva Muhayyo Alimbaevna</i> AVTOMOBILLARDA TASHISH VA HARAKAT XAVFSIZLIGINI TASHKIL ETISH FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY TA'LIM VOSITALARINING O'RNI.....	422-429
<i>Umarov Komil, Sobirov Orif, Sultanov Rustam, Egamberdiyev Abdullo</i> YUQORI MALAKALI GANDBOLCHILAR MASHG'ULOTLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	430-435
<i>Doniyorova Gulnoza Anvar qizi, Kurbanova Gulnoz Negmatovna</i> INTERAKTIV VOSITALAR VA AXBOROT RESURSLARIDAN FOYDALANISH ORQALI KASBIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI.....	436-441
<i>Nafasov Arslon Komilovich</i> PEDAGOGIK TA'LIM KLASTERI YO'NALISHIDA TARIX O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI.....	442-447
<i>Pulatova Muxabbat Egamberdiyevna, Qalandarova Sevinch Aqiljon qizi</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV SALOHIYATINI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH	448-453

Received: 15 January 2026
Accepted: 2 February 2026
Published: 14 February 2026

Article / Original Paper

WAYS TO IMPROVE THE TRAINING PROCESS OF HIGHLY QUALIFIED HANDBALL PLAYERS

Umarov Komil Majitovich,
Associate Professor, Samarkand State University

Sobirov Orif Abdijalilovich, Sultanov Rustam Turayevich,
Lecturers, Samarkand State University

Egamberdiyev Abdullo Egamberdi o'g'li,
Master's Student, Samarkand State Pedagogical Institute
k.umarov@gmail.com

Abstract. This article studies the characteristics of the training process of highly skilled handball players. Conclusions are drawn to improve the effectiveness of the training process. The training of highly skilled handball players is analyzed and recommendations are given.

Keywords: training process, physical qualities, dynamics, handball.

YUQORI MALAKALI GANDBOLCHILAR MASHG'ULOTLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Umarov Komil Majitovich,
Samarqand davlat universiteti dotsenti

Sobirov Orif Abdijalilovich, Sultanov Rustam Turayevich
Samarqand davlat universiteti o'qituvchilari

Egamberdiyev Abdullo Egamberdi o'g'li,
Samarqand davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada yuqori malakali gandbolchilarning mashg'ulot jarayoni bilan bog'liq xususiyatlar o'rganilgan. O'quv-mashg'ulot jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan xulosalar ishlab chiqilgan. Yuqori malakali gandbolchilar mashg'ulotlari tahlil etilgan va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: mashg'ulot jarayoni, jismoniy sifatlar, dinamika, gandbol.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I2Y2026N62>

Kirish. Mamlakatimizda jismoniy tarbiya sohasini rivojlanishiga qaratilgan qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan va jadallikda hayotga tatbiq etib kelinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi, «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlar siyosati va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 20-yanvardagi PF-18-son [farmoni](#), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.11.2022 yilda "Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini

yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-414-son qarori shular jumlasidandir [1, 2]. Buning natijasida yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzi keng qaror topib, sportning ommaviyligi ta'minlanmoqda. O'zbekiston sportchilari jahonning nufuzli musobaqalarida yuksak g'alabalarni qo'lga kiritib, mamlakatimiz sport salohiyatini butun dunyoga namoyon qilmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Sport turlari ichida gandbol o'ziga xosligi, tomoshabopligi, qiziqarli ekanligi bilan ajralib turadi. Mazkur sport turidan mashg'ulotlarni to'g'ri tashkil etishda mashg'ulot sifat va samaradorligiga alohida e'tibor qaratish lozim. Shunga ko'ra murabbiylar, mutaxassislar va soha xodimlari har doim mashg'ulotlarni olib borishda organizmning funksional imkoniyatlari takomillashishiga yordam beruvchi va gandbolchilarning ko'plab ijobiy sifatlari shakllanishiga xizmat qiluvchi mashqlarga e'tibor qaratishlari lozim.

Shu sababli, gandbolchilarning jismoniy rivojlanishi organizmning morfologik va funksional xususiyatlarini, yoshi va sog'ligi, irsiy omillari, turmush sharoiti va gandbol amaliyotining o'ziga xos ta'siri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan tabiiy jarayondir [3, 4].

Yuqori malakali gandbolchilarni mashg'ulot jarayonini takomillashtirishda quyidagi omillarga alohida e'tibor qaratish muhimdir:

1. Gandbol mashg'ulotlarida barcha jihozlarga alohida ahamiyat qaratish (asbob-uskunalarini tayyorgarligi);

2. Mashg'ulotlarning boshlanish va tugash vaqtini optimallashtirish;

3. Mukammal texnik va taktik qoidalarga amal qilish;

4. Mashg'ulotlarda raqobatbardosh faoliyatga xos bo'lgan jismoniy va aqliy qobiliyatlarni rivojlantirish;

5. Gandbolchilarning yoshi va sport tajribasiga asoslangan holda mashg'ulotlar rejasini ishlab chiqish;

6. Gandbolchilarning uzoq muddatli tayyorgarlik tizimini samarali ishlab chiqish, tayyorgarlikka qaratilgan barcha tizimlarni birlashtirish;

7. Mashg'ulotlarning samaradorligini aniqlovchi faktorlarni bilish;

Yuqori malakali gandbolchilarni tayyorlash jarayonini tashkil qilish haqida gapirganda, uning murakkabligi va ko'p qirrali ekanligini ta'kidlash kerak.

Ushbu omillarning raqobatbardosh gandbolchilarni tayyorlash samaradorligini yanada oshirishga yordam berish bilan bir qatorda, yuqori natijalarga erishishga ham ijobiy ta'sir etadi [5].

Gandbol sport turi bo'yicha mashg'ulot jarayoni va sport tayyorgarligi turlarining bosqichlari, ularning hajmi va nisbati

Sport mashg'ulotlari bo'limi	Sport mashg'ulotlarining bosqichlari va yillari					
	Dastlabki tayyorgarlik bosqichi		Mashg'ulot bosqichi (sportga ixtisoslashuv bosqichi)		Sportni takomill ashtirish bosqichi	Oliy sport mahorati darajasi
	1 yil	Bir yil davomida	Ikki yilgacha	Ikki yildan ortiq		
Umumiy jismoniy tayyorgarlik (%)	28 — 30	25 — 28	18 — 20	8 — 12	6 — 8	8 — 10
Maxsus jismoniy tayyorgarlik (%)	9 — 11	10 — 12	10 — 14	12 — 14	14 — 17	12 — 14
Texnik tayyorgarlik (%)	20 — 22	22 — 23	23 — 24	24 — 25	20 — 25	18 — 20
Taktik, nazariy, psixologik tayyorgarlik hamda qayta tiklovchi vositalar (%)	12 — 15	15 — 20	22 — 25	25 — 30	26 — 32	26 — 34
Texnik-taktik (integral) tayyorgarlik (%)	12 — 15	10 — 14	8 — 10	8 — 10	8 — 10	8 — 10
Musobaqalarda ishtirok etish, murabbiylik va hakamlilik amaliyoti (%)	8 — 12	10 — 12	10 — 14	13 — 15	14 — 16	14 — 16

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Umumiy jismoniy tayyorgarlik: Ushbu bosqichning asosiy maqsadi sportchilarning umumiy jismoniy tayyorgarligini oshirish, ularning organizmining asosiy tizimlarini, funksional imkoniyatlarini oshirish va zarur sport, texnik va taktik, psixologik fazilatlarni rivojlantirishdan iborat. Ushbu bosqichda umumiy rivojlanishning asosiy yo'nalishlari bo'yicha katta hajmdagi mashqlar yuklamasi hamda sportchilarning barcha mushak guruhlarini rivojlantirishga mo'ljallangan mashqlaridan iborat. Umumiy tayyorgarlik bosqichi juda muhimdir, chunki u maxsus mashg'ulotlarga asoslangan holda sportchilarning jismoniy va funksional tayyorgarligiga yo'naltiruvchi harakatlar va turli harakatlar tezligini har tomonlama rivojlantirishga qaratiladi. Tayyorgarlik davrining birinchi bosqichida maxsus tayyorgarlikning muhim vazifasi sportchilar katta hajmdagi yuklamani bajara olish qobiliyatini oshirishdan iborat. Tayyorgarlikning dastlabki bosqichida o'rgatish samaradorligiga asoslangan holda raqobatbardosh mashqlarni tanlay bilish va uni qo'llay olishi.

Maxsus jismoniy tayyorgarlik: Ushbu bosqichning asosiy maqsadi sportchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini oshirish, ularning sport formasini to'g'ridan-to'g'ri shakllantirishga qaratiladi. Maxsus jismoniy tayyorgarlik vazifalari sportchilarni butun organizmini funksional imkoniyatlari va oyoqlarning mushak kuchi, yelka-kamar va tananing portlovchi kuchini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishdan iborat. Gandbolchilarning


maxsus jismoniy sifatlarni rivojlantirish va o'z sport turining raqobatbardosh mashqlari, shuningdek, ularning vosita va murakkab harakatlar bilan bajariladigan o'ziga xos mashqlarni to'g'ri tanlash hamda qo'llashdan iboratdir.

Texnik tayyorgarlik: Gandbolchilarning texnik tayyorgarlik darajasini obyektiv baholash faqat uning namoyon bo'lish usullari va imkoniyatlarini har qanday vaziyatlarda va qarshi ta'sirlar sharoitida barqaror va samarali ijro etilishga qaratiladi. Texnik tayyorgarlikni rivojlantirishda ixtisoslashtirilgan vositalar (mashqlar) yordamida amalga oshiriladi. Aslida "vositalar" keng ma'noga ega bo'lib, ularning turlari xilma-xildir. Asosiylari, tabiiyki, yondashtiruvchi mashqlar, texnikaga oid mashqlar (yoki asosiy mashqlar) va ikki tomonlama gandbol o'yini bo'lib hisoblanadi. Lekin masalani muvaffaqiyatli va samarali hal etish uchun o'rgatish va takomillashtirish jarayonida tayyorlov mashqlari va taktikaga oid mashqlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Boshqacha qilib aytganda, jismoniy sifatlarni rivojlantiruvchi va taktikaga oid mashqlarni texnikaga o'rgatish jarayonida qo'llab borish, o'yin jarayonida gandbolchiga o'z texnik imkoniyatidan foydalanish darajasini orttiradi. Demak, texnik tayyorgarlik jismoniy va taktik tayyorgarlik bilan uzviy va chambarchas bog'liqligiga e'tibor qaratish.

Taktik, nazariy, psixologik tayyorgarlik hamda qayta tiklovchi vositalar: Gandbolchilarni umumiy va maxsus jismoniy sifatlarni rivojlanganlik darajasi hamda ularni o'yin jarayonida uyg'un namoyish etishi, taktik fikrlash "boyliqi" va taktik harakatlarini serqirraligiga bog'liq bo'ladi. Gandbolchilarni nazariy (intellektual) tayyorgarlik hamda psixofunksional (xotira, diqqat, hissiyot, tafakkur, ong, iroda, ko'rish kengligi, yurak, nafas olish va hokazo organlar) imkoniyatlarni shakllanganlik darajasi, raqib o'yinchilari va raqib jamoa taktikasi hamda boshqa imkoniyatlarini tez anglash hamda shunga nisbatdan tez qaror qabul qilish qobiliyatiga qaratiladi.

Mazkur omillar doirasida qayd etilgan barcha imkoniyatlarni yuksak darajada shakllantirish ko'p yillik sport mashg'ulotlarida amalga oshiriladigan taktik tayyorgarlikning strategik maqsadlardan biri bo'lib hisoblanadi.

Texnik-taktik (integral) tayyorgarlik: Gandbolchilarda jismoniy tayyorgarlik, texnik — taktik tayyorgarlik, integral tayyorgarlikni rivojlantiruvchi nazorat o'yinlarini yuqori darajada qo'llash.[6,7,8]



Mashg'ulot samaradorligi quyidagi ko'rsatkichlar orqali aniqlanadi:

- Jismoniy tayyorgarlik indeksining o'sishi;
- Texnik elementlarni bajarish aniqligining ortishi;
- Taktik o'zaro uyg'unlikning kuchayishi;
- Qarshi hujum samaradorligining o'sishi;
- Psixologik barqarorlikning yaxshilanishi;
- Qaror qabul qilish tezligini oshirish.

Yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlarni samarali rivojlantirish bu mashg'ulot samaradorligi oshishiga yordam beradi. Bu ko'rsatkichlarni mashg'ulot jarayonida samarali rivojlantirish talab etiladi. Aksincha ularni rivojlantirmasdan muvaffaqiyatga erishish mumkin emas. [9]

Yuqori malakali gandbolchilarni mashg'ulot jarayonlarini tahlil qilish natijasida o'ta keskin raqobat ostida kechadigan turli nufuzli musobaqalarda g'alabaga erishish, shu g'alabani ta'minlashga zamin bo'ladigan texnik-taktik harakatlar, jismoniy va psixofunksional imkoniyatlarni shakllantirish bilan bog'liqdir. Buning uchun har bir murabbiy o'z kasbiy-pedagogik faoliyatida o'rgatish-takomillashtirish uslublari, vositalari va tamoyillarini mukammal bilishi hamda ularni qo'llash texnologiyasini o'zlashtirgan bo'lishi shart. [10]

Xulosa. Ilmiy asoslangan rejalashtirish, individual yondashuv tamoyili hamda yuklama va tiklanish jarayonlarining optimal nisbatini ta'minlash sportchilarning yuqori natijalarga erishishida hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Mashg'ulot jarayoniga innovatsion pedagogik va sport texnologiyalarini joriy etish, monitoring va diagnostika vositalaridan foydalanish tayyorgarlik samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Shuningdek, yuqori malakali gandbolchilarning tayyorgarligini takomillashtirishda taktik fikrlash, tezkor qaror qabul qilish ko'nikmalari va stressga chidamlilikni rivojlantirish muhim yo'nalish sifatida namoyon bo'ladi. Zamonaviy sport ilm-fani yutuqlariga asoslangan metodik yondashuvlar mashg'ulot jarayonining sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishiga imkon yaratadi.

Demak, yuqori malakali gandbolchilar mashg'ulotlarini takomillashtirish ilmiy asoslangan rejalashtirish, innovatsion texnologiyalarni qo'llash va individual yondashuvni

ta'minlash orqali amalga oshirilishi zarur bo'lib, bu sportchilarning raqobatbardoshligini oshirish va barqaror sport natijalariga erishishning muhim sharti hisoblanadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, yuqori malakali gandbolchilarning mashg'ulotlarini uzluksizlik va uzviyligini ta'minlash. Ushbu jarayonlarni tizimli yondashuvlar asosida, maqsadli tarzda amalga oshirish samaradorligi yuqori hisoblanadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. 1997-yil. – 27 b.
2. O'zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida”gi Qonuni. 2015-yil 4-sentabr.
3. Pavlov Sh.K., Abdalimov O.X., Yusupova Z.Y. Gandbol nazariyasi va uslubiyati. Darslik. – Toshkent. Fan va texnologiya, 56-87 bet 2017 yil.
4. Azizova R.I. Gandbolchining texnik tayyorgarligi. –Toshkent, 45-89 bet 2006 yil.
5. O.A.Sobirov, K.M.Umarov Gandbol nazariyasi va uslubiyati. O'quv qo'llanma. –Samarqand, 65-69 bet 2022 yil.
6. S.Azizova Qo'l to'pi o'yini darvozobonchilarni tayyorlash metodikasi // Uslubiy qo'llanma // 62-84bet 2008 yil
7. Sh.F.To'laganov Gandbol // Darslik O'zDJTI nashriyot-matbuot bo'limi Toshkent 126-189 bet 2021yil
8. Allan Lund (DEN), Developed by the IHF working group “Handball at school” 45-49 pp 2011y.
9. Дылкина Т.А., Романова Е.В., Семенякина Е.М., Калагина С.Н. Обучение игре в гандбол. Учебное пособие. – Барнаул, 51-63 с 2019 год
10. Шибут Л.М, Коломийчук Т.А, Щепанова А.В, Гончарова Е.А. Техника и тактика игры вратаря в гандболе. Учебно-методическое пособие. – Екатеринбург, 73-84 с 2016 год
11. Игнатева В.Я., Игнатев А.В., Игнатев А.А. Средства подготовки игроков в гандбол, 119-135 с Масква 2015 год

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (6) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).